

# O'zbekiston va Boshqirdiston: Ilm-fan hamkorligida yangi bosqich boshlandi

Boshqirdiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari, savdo va xizmatlar vaziri, Boshqirdiston Respublikasi YevroOsiyo Ilm-ta'lim markazi direktori hamda Boshqirdiston rivojlanish korporatsiyasi vakillari tarkibidagi rasmiy delegatsiya savdo-iqtisodiy, sanoat, ilm-ta'lim sohalarida hamkorlikni kengaytirish maqsadida O'zbekistonga tashrif buyurdi.

Ushbu rasmiy tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti hamda Boshqirdiston Respublikasi YevroOsiyo Ilm-ta'lim markazi o'rtasida ilm-ta'lim sohasida hamkorlik shartnomasi imzolandi.



Hamkorlik shartnomasi doirasida Fizika-texnika institutida YevroOsiyo Ilm-ta'lim markazi vakolatxonasini tashkil etish, ilmiy-amaliy loyihalarni boshqarish, fan boshqaruvi sohalarida hamkorlikda o'zaro manfaatli malaka oshirish kurslarini tashkil qilish, O'zbekiston Fanlar akademiyasi institutlari hamda Boshqirdiston Respublikasi YevroOsiyo Ilm-ta'lim markazi olimlari uchun fotonika, yarimo'tkazgichlar fizikasi, atom energetikasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, yadro fizikasi sohalarida ikkala tomon yetakchi olimlarining beg'araz ma'ruza hamda master-klasslarni tashkillashtirish ko'zda tutilgan.

Shartnoma doirasida shuningdek hamkorlikda ilmiy-tadqiqot loyihalarni amalga oshirish, ilmiy anjumanlarni o'tkazish, hamkorlikdagi tadqiqotlar uchun olim va doktorantlarni ikkala tomonga yuborish, o'zaro manfaatli tajriba hamda ilmiy-texnikaviy axborot almashuvini tashkil qilish rejalashtirilgan.